International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

TARJIMASHUNOSLIKDA LEKSIK BIRLIKLARNI QAYTA YARATISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: EKVIVALENTLIK, ADEKVATLIK VA MILLIY KOLORIT MUVOZANATI (CHO‘LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ASARI TARJIMASI MISOLIDA)

Jumaniyazova Gulnoza Xamidovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
2-bosqich magistranti
E-mail: gjumaniyazova955@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimashunoslikning fundamental muammolaridan biri - manba matndagi leksik birliklarni maqsad tilida qayta yaratish masalasi tadqiq etiladi. Tadqiqot doirasida leksik ekvivalentlikning ko'p qatlamli tabiati, adekvat tarjima mezonlari hamda badiiy matnda milliy-madaniy koloritni saqlash muammolari o'zaro aloqadorlikda tahlil qilingan. Ishda jahon tarjimashunosligida ko‘zga ko‘ringan olimlarning konseptual qarashlariga tayanib, tarjimadagi lingvomadaniy to'siqlarni bartaraf etish strategiyalari tizimlashtiriladi. Ayniqsa, matnni milliy muhitga moslashtirish hamda undagi begonalik unsurlarini saqlab qolish strategiyalarining o‘zaro mutanosibligi, shuningdek, xalqchil tushunchalarni ifodalashda vazifadosh muqobillardan foydalanishning o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tarjima nazariyasi, leksik ekvivalentlik, adekvat tarjima, milliy-madaniy kolorit, realiya, domestikatsiya, foreignizatsiya, pragmatik ta’sir.

KIRISH

Zamonaviy tillararo va madaniyatlararo muloqot tizimida tarjima shunchaki bir til kodini ikkinchi til kodiga mexanik ravishda almashtirish jarayoni emas, balki murakkab ijtimoiy-madaniy va kognitiv hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, hozirgi tarjimashunoslik ilmining

markazida matnni lingvistik va ekstralingvistik omillar yaxlitligida qayta yaratish muammosi turadi. Ushbu muammoning eng dolzarb va murakkab qatlamini esa leksik birliklarni maqsad tilida qayta ifodalash tashkil etadi[1].

Til tizimidagi har qanday leksik birlik faqatgina obyektiv borliqdagi predmet yoki hodisani nomlash (nominativ vazifa) bilan cheklanib qolmaydi. U o‘zida chuqur semantik mazmun, uslubiy bo‘yoq, emotsional-ekspressiv yuk, tarixiy-ijtimoiy tajriba va eng muhimi, muayyan xalqning dunyoqarashini aks ettiruvchi madaniy axborotni tashiydi. Ayniqsa, badiiy tasviriy vositalar va prozaik matnlarda so'zning funksional salmog'i keskin ortadi. Muallif uslubi, personajlar nutqining tabiati, asar yozilgan davr ruhiyati va milliy muhit aynan leksik sathdagi markerlar yordamida yuzaga chiqadi[2].

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, milliy tillarning o'ziga xos taraqqiyot tendensiyalari va global madaniyatlararo integratsiya sharoitida tarjimada milliylikni va semantik aniqlikni saqlash muammosi yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Maqolaning maqsadi — tarjimashunoslikda leksik birliklarni qayta yaratish bilan bog'liq uchta tayanch tushuncha: leksik ekvivalentlik, adekvat tarjima va milliy-madaniy koloritni saqlash muammolarini o'zaro sintez qilgan holda, badiiy tarjimaning nazariy va amaliy mezonlarini aniqlashtirishdan iborat[3].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida qiyosiy-tipologik tahlil, komponent tahlil (componential analysis), madaniyatlararo muloqot konsepti hamda kontekstual-funksional tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, matn tahlilida lingvistik prinsiplar bilan bir qatorda ekstralingvistik hamda pragmatik omillarni inobatga oluvchi integrativ yondashuv qo'llanildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning nazariy bazasini shakllantirishda dunyo tarjimashunosligi maktabining quyidagi konseptual asarlariga tayanildi:

1. Mona Beykerning (Mona Baker) so'z darajasidagi ekvivalentlik va nomuvofiqlik sabablarini ochib beruvchi tasniflari;
2. Yujin Naydaning (Eugene Nida) formal va dinamik ekvivalentlik nazariyasi;
3. Gideon Turining (Gideon Toury) tarjimadagi ijtimoiy-madaniy normalar va adekvatlik qutblari konsepsiyasi;
4. Piter Nyumarkning (Peter Newmark) madaniyatga xos birliklar (cultural words) tasnifi;
5. Lourens Venutining (Lawrence Venuti) domestikatsiya (mahalliylashtirish) va foreignizatsiya (yadrolashtirish/begonalashtirish) strategiyalari.

Mazkur metodologik apparat leksik birliklarning manba tildan maqsad tiliga o'tishidagi semantik, uslubiy va pragmatik o'zgarishlarni tizimli o'rganish imkonini beradi[4].

NATIJA VA MUHOKAMA

O'tkazilgan nazariy tahlillar va konseptual manbalarni qiyoslash natijasida tarjimashunoslikda leksik birliklarni qayta yaratish jarayoni uchta asosiy bosqichli model hamda doimiy muvozanatni talab qiluvchi tizim ekanligi aniqlandi.

Leksik ekvivalentlik shunchaki ikki tildagi so'zlararo lug'aviy moslik emas. Mona Beyker tadqiqotlariga tayangan holda so'z darajasidagi nomuvofiqlikning asosiy sabablarini tizimlashtirganimizda, natijalar quyidagi jadvalda o'z aksini topd[5]i:

1-jadval. Maqsad tilida leksik ekvivalent mavjud bo'lmasligining deterministik sabablari

№	Nomuvofiqlik sababi	Mazmuni va tabiati	Tarjimon oldidagi vazifa
1	Madaniyatga xos tushunchalar	Maqsad til mansub bo'lgan jamiyatda mutlaqo mavjud bo'lmagan realiyalar	Yangi tushunchani kontekstual kiritish yoki izohlash
2	Leksiklashmagan ma'nolar	Manba tildagi tushuncha maqsad til sohiblariga tanish, ammo maxsus so'z bilan ifodalanmagan	Tavsifiy yoki bir nechta so'z birikmasi orqali berish
3	Semantik jihatdan murakkab birliklar	Birgina so'z o'zida butun boshli gap yoki holat ma'nosini mujassam etgan holatlar	Ma'no komponentlarini tahlil qilib, funksional muqobil topish
4	Ma'no tarkibining turlicha bo'linishi	Tillararo semantik maydonlarning (masalan, ranglar, qarindoshlik nomlari) mos kelmasligi	Kontekstga eng yaqin segmentni tanlash

G. Turi konsepsiyasidan kelib chiqib, tarjimon faoliyatidagi ikki qarama-qarshi qutb - manba matn normalariga sodiqlik (adekvatlik) va maqsad til madaniy muhitiga moslashish (qabul qilinuvchanlik) muvozanati tahlil qilindi. Tadqiqot ko'rsatadiki, mutlaq adekvatlikka intilish ko'pincha matnning o'qilishini qiyinlashtirsa, mutlaq qabul qilinuvchanlik asarning milliy qiyofasini yo'qotadi. Shuning uchun zamonaviy adekvat tarjima tushunchasi funksional-pragmatik muvozanat nuqtasi sifatida aniqlandi[6].

Tarjima nazariyasining markaziy tushunchasi bo'lmish ekvivalentlik muammosini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ikki xil til tizimida so'zlarning o'zaro mutlaq tengligiga erishish deyarli imkonsizdir. Tarjimashunos olim Yujin Nayda o'zining fundamental ishlarida "mutlaq aynanlik" tushunchasidan voz kechib, diqqatni "eng yaqin mumkin bo'lgan ekvivalent" (the closest natural equivalent) topishga qaratadi [7].

Nayda tomonidan ilgari surilgan ikki turdagi ekvivalentlik modelini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

1. Formal ekvivalentlik (Formal equivalence): Bunda tarjimon bor e'tiborini manba matnning shakli va mazmuniga qaratadi. Grammatik tuzilma, leksik birliklar tabiati imkon qadar asliyatga mos shaklda saqlanadi. Biroq, bu usul ko'p hollarda maqsad tili o'quvchisi uchun sun'iylik va tushunarsizlikni keltirib chiqaradi.
2. Dinamik ekvivalentlik (Dynamic equivalence): Mazkur yondashuvda asosiy urg'u maqsad til o'quvchisining psixolingvistik reaksiyasiga qaratiladi. Ya'ni, tarjima matni o'quvchida xuddi asliyat o'quvchisidek taassurot va emotsional-ekspressiv effekt uyg'otishi kerak [8].

Leksik sathda dinamik ekvivalentlikni ta'minlash tarjimondan so'zning faqat referensial (denotativ) ma'nosini emas, balki uning konnotativ va pragmatik qatlamlarini ham chuqur his qilishni talab etadi. Masalan, so'zning lug'aviy ma'nosi saqlangani holda uning uslubiy jozibasi yoki hissiy bo'yog'i yo'qolsa, ekvivalentlik buzilgan hisoblanadi. Shuning uchun amaliyotda ko'pincha to'liq leksik ekvivalent emas, balki qisman, funksional yoki tavsifiy ekvivalentlardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Amaliy tarjimada "adekvat tarjima" iborasi ko'pincha subyektiv tarzda "yaxshi tarjima", "to'g'ri tarjima" ma'nosida qo'llaniladi. Vaholanki, ilmiy jihatdan adekvatlik o'ta murakkab va tizimli mezondir. Tarjimashunos olim Gidion Turi tarjimani ijtimoiy-madaniy normalar tizimi kontekstida tadqiq etib, uning ikki qutb orasidagi harakatini ko'rsatib beradi:

"Tarjimon doimo ikki tomonlama mas'uliyat ostida ishlaydi: u bir tomondan manba matn

va uning madaniy normalariga sodiq qolishi, ikkinchi tomondan esa maqsad til jamiyati va madaniyatining til normalariga moslashishi lozim" [3].

Turi tizimida manba matn normalariga maksimal yaqinlashish adekvatlik (adequacy) deb atalsa, maqsad til tizimiga mukammal moslashish qabul qilinuvchanlik (acceptability) sifatida baholanadi [4].

Adekvatlik til birliklarining shunchaki tashqi shakliy o'xshashligi bilan emas, balki matn ichidagi semantik tayanch nuqtalarining, uslubiy muhitning va muallif ko'zda tutgan pragmatik maqsadning maqsad tilida qanchalik qayta tiklangani bilan o'lchanadi. Ba'zan formal jihatdan asliyatdan uzoqlashgan tarjima, funksional jihatdan o'ta adekvat yechim bo'lib chiqishi mumkin.

Leksik birliklarni qayta yaratish jarayonining eng chigal va ziddiyatli nuqtasi shubhasiz milliy-madaniy koloritni saqlash muammosidir. Har bir xalqning o'ziga xos yashash tarzi, urf-odatlari, mentaliteti va tarixiy yo'li uning leksika qatlamida o'z muhrini qoldiradi. Piter Nyumark bunday leksik qatlamni "madaniyatga xos so'zlar" (cultural words) deb ataydi va ularni quyidagi guruhlarga ajratadi:

- Ekologik birliklar (flora, fauna, landshaft xususiyatlari);
- Moddiy madaniyat elementlari (milliy taomlar, kiyimlar, uy-joy turlari);
- Ijtimoiy hayot va mehnat faoliyati;
- Urf-odatlar, marosimlar va diniy tushunchalar;
- Siyosiy-ma'muriy va ijtimoiy unvonlar [5].

Ushbu birliklar tarjimashunoslikda realiyalar deb ham yuritiladi. Realiyalarni tarjima qilishda shunchaki lug'atga tayanib bo'lmaydi, chunki ularning orqasida butun boshli milliy kontekst va "madaniy fon" turadi. Tarjimon realiyalar bilan ishlashda doimo ikki keskin strategiya qarshisida qoladi. Bu strategiyalar Lourens Venuti tomonidan mukammal ishlab chiqilgan:

1. Domestikatsiya (Domestication - Mahalliy va tanish qilish): Tarjima matnini maqsad til o'quvchisining madaniy tushunchalariga maksimal darajada moslashtirish, matndagi begonalik unsurlarini silliqlash va yo'qotish strategiyasi. Bu o'quvchiga matnni oson qabul qilish imkonini beradi, biroq asarning milliy o'ziga xosligini, ekzotizmini va jozibasini yo'qqa chiqaradi [6].
2. Foreignizatsiya (Foreignization - Begonalashtirish va o'zgalikni saqlash): Asliyat matnining boshqa madaniyatga mansubligini atayin ko'rsatib turish, undagi milliy realiyalar va lisoniy qurilmalarni maqsad tiliga imkon qadar saqlab o'tkish. Bu asarning milliy koloritini yorqin saqlaydi, ammo maqsad tili o'quvchisi uchun matnni idrok etishda jiddiy intellektual va madaniy qiyinchiliklar tug'diradi [7].

Ushbu ikki strategiyaning o'zaro kurashi va muvozanatini ta'minlash uchun zamonaviy tarjima amaliyotida bir qator differensial uslubiy usullar qo'llaniladi. Bular: transliteratsiya/transkripsiya (so'zni shaklan ko'chirish), tavsifiy tarjima (izohlab berish), funksional muqobillashtirish, kontekstual neytrallash hamda sahifa osti izohlari (snoska) berishdir.

Strategiyani tanlashda birlikning matndagi funksional yuklamasi asosiy mezon hisoblanadi. Agar milliy so'z syujet chizig'ida markaziy o'rin tutsa (masalan, asar qahramonining dunyoqarashini belgilasa), u holda uning shaklini saqlab, foreignizatsiya strategiyasini qo'llash va izoh berish o'rinlidir. Ikkinchi darajali, shunchaki fon yaratuvchi birliklar esa ko'pincha madaniy neytrallashuv yoki umumlashtirish usuli bilan berilishi maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

O'tkazilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlar va tarjimashunoslik maktablarining yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi:

1. Leksik birliklarni qayta yaratish - bu oddiy tillararo lug'aviy almashtirish jarayoni emas, balki manba matndagi semantik, konnotativ, uslubiy va pragmatik axborotlar majmuini maqsad tilining lisoniy va madaniy qonuniyatlari asosida qayta sintez qilish demakdir.

2. Leksik ekvivalentlik sohasida mutlaq aynanlik tushunchasi mavjud emas. Tarjimon har doim kontekst, janr va kommunikativ maqsadni inobatga olgan holda "eng yaqin funksional va dinamik ekvivalentlar" tizimini yaratadi. Mona Beyker ko'rsatganidek, leksik muqobillikning yo'qligi tarjimondan ijodiy va transformatsion yondashuvni talab etadi.
3. Adekvat tarjima mezonlari faqatgina manba matnga so'zma-so'z va shakliy sodiqlik bilan o'lchanmaydi. Adekvatlik asliyatning funksional-uslubiy va pragmatik tabiatini saqlagan holda, maqsad til o'quvchisiga muallif ko'zda tutgan estetik va hissiy ta'sirni yetkazib bera olish bilan belgilanadi.
4. Milliy-madaniy koloritni saqlash muammosi tarjimani oddiy lingvistik hodisadan yuksak madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy-psixologik darajaga olib chiqadi. L.Venuti ilgari surgan domestikatsiya va foreignizatsiya strategiyalarining o'rinli va muvozanatli qo'llanishi tarjimada matnning o'quvchiga tushunarli bo'lishi hamda uning o'ziga xos milliy qiyofasini yo'qotmasligi orasidagi nozik muvozanatni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, leksik birliklarni qayta yaratish muammolari o'zaro zanjirsimon bog'langan yaxlit tizim bo'lib, badiiy prozaik matnlarni tarjima qilish va ularni ilmiy tahlil etishda ushbu uchlik (ekvivalentlik, adekvatlik va kolorit) asosiy metodologik poydevor bo'lib xizmat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. E. A. Nida, Toward a Science of Translating. Leiden, Netherlands: E. J. Brill, 1964, p. 156.
2. E. A. Nida and C. R. Taber, The Theory and Practice of Translation. Leiden, Netherlands: E. J. Brill, 1969, p. 24.
3. G. Toury, Descriptive Translation Studies and Beyond. Amsterdam, Netherlands; Philadelphia, PA, USA: John Benjamins Publishing Company, 1995, p. 56.
4. G. Toury, In Search of a Theory of Translation. Tel Aviv, Israel: Porter Institute, 1980, p. 35.
5. P. Newmark, A Textbook of Translation. Oxford, UK: Pergamon Press, 1988, p. 85.
6. L. Venuti, The Translator's Invisibility: A History of Translation. London, UK; New York, NY, USA: Routledge, 1995, pp. 19–20.
7. L. Venuti, The Scandals of Translation: Towards an Ethics of Difference. London, UK; New York, NY, USA: Routledge, 1998, p. 82.
8. M. Baker, In Other Words: A Coursebook on Translation, 2nd ed. London, UK; New York, NY, USA: Routledge, 2011, pp. 5–15.